

BUYRAKTOSHKASALIGI

OdilovXurshidAkmalovich
ErkinovaMohidilRavshanjonqizi
Farg'onaJamoatSalomatligiTibbiyotInstituti

Annotatsiya : *Buyrak tosh kasaligi*

Kalit so'zlar:*Buyrak tosh kasaligi, Uratlar, karbonatlar, oksalatlar, Sistin, Ultratovush, Multispiral kompyuter tomografiyasi*

Buyrak tosh kasaligi- buyrak va siydik yo'llarida tuz hosil bo'lishi bilan kechadigan kasallik.Buyrak tosh kasaligi inson organizmda moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi.Shuningdek yetarli miqdorda suyuqlik ichmaslik sababli organizmda suv almashinuvini buzilishi, peshob yo'llarida paydo bo'ladigan infeksiyalar, peshob hajmi kamayib tosh hosil qiluvchi moddalar miqdori ko'payganda tosh paydo boladi.Bundan tashqari ba'zi dori preparatlardan foydalanganda ham tosh paydo boladi

Buyrak tosh kasaligi sabalariga quyidagilar kiradi.

- Ingichka ichaklarda ko'p miqdorda kalsiyning so'rilishi.
- Ovqat ratsionida minerallarning ko'payib ketishi.
- Organizmda vitaminlar yetishmasligidan.
- Kamqonlikda.
- Oqsillar tanqisligida va me'da ichak kasalligida.
- Semizlik Ortiqcha yog' buyrakka bosim o'tkazib uning ishini susaytiradi.
- Qalqonsimon bez yonidagi bezchalar faoliyatini kuchayishi natijasida

Yuqoridagi holatlar kuzatilib siydikda tuz kristallari hosil bo'ladi. Bu tuz kristallari shakllanib siydik toshlarga aylanadi.

Buyrak toshlarini bir nechta turi bor

Uratlar- urat kislota tuzlaridan hosil bo'ladi

Karbonatlar- kalsiyli karbonat tuzlaridan hosil bo'ladi

Fosfatlar- fosfat kislota tuzlaridan hosil bo'ladi

Oksalatlar- kalsiyli oksalat tuzlaridan hosil bo'ladi

Buyrakda tosh hosil bo'lish xavfini oshiradigan asosiy omillardan biri yetarlicha mashq qilmaslik yani harakatsiz turmush tarzi hisoblanadi.

Toshlarni shakllanish sabablari va tarkibiga qarab turlarga bo'linadi.

Sistinli- 3%

Siydik kislotali-12%

Kalsiyli-70%

Infeksiyalangan-15%

BUYRAK TOSH KASALLIK BELGILARI

Buyrak tosh kasaligida bel sohasida kuchli og'riq bo'ladi. Bu og'riq sababi buyrak kosachalarida yoki uning jomida tosh turib qoladi. Bunda siydik rangining

o'zgarishi, unda o'ziga xos hid paydo boladi. Buyrak toshchalari ko'chish paytida ko'ngil aynishi va hattoki qayt qilish bilan kechadi. Odatda insonlar bu belgini ovqatdan zaharlanish deb o'ylaydi. Lekin shubhali hech narsa yemagan bo'lsa buyrak toshlari bolishi mumkin.

Buyrak tosh kasaligi bilan kasallangan bemorlarda siydik yo'lida tosh yig'ilish natijasida to'siq paydo bo'lib sanchiq yuzaga keladi. Sanchiq dastlab bel sohasida keyin tosh harakatlanishi hisobiga chov sohasi bo'ylab qovuqqa tomon og'riq kuchayadi. Bu hodisadan so'ng siydik qon aralash tusha kiradi.

BUYRAK TOSH KASALLIKLARINI TEKSHIRISH VA DAVOLASH USULLARI

Yuqoridagi shikoyatlar yuzaga kelganda quyidagi tekshiruvlar orqali buyrakda tosh kasaligini aniqlash mumkin.

* Anamneziya yig'ish bemorni tekshirish.

* Qon va siydikni biokimyoviy tekshiruvdan o'tkazish.

* Ultratovush - bu minimum salbiy ta'sirga ega bo'lib eng keng tarqalgan. U hattoki homilador ayollar uchun ham kontrendikatsiyaga ega emas. Bu usul orqali kichik toshlarni ham aniqlash mumkin.

* Multispiral kompyuter tomografiyasi - toshni ko'rish, uning zichligi hajmini hisoblab beradi. 3D - rekonstruksiyanı amalga oshirish mumkin.

* Buyraklar funksiyasini va uning buzilish darajasini o'rganish imkon beruvchi dinamik va statik nefrostsintigrafiya.

Buyrak tosh kasalliklarini davolashda toshni turiga hajmiga va qayerdaligiga bog'liq.

Buyrak toshlarini tez eritadigon moddalardan biri Olma sirkasi tarkibidagi sirka kislotasi mavjud. Olma sirkasi buyrak toshlarini eritish bilan birga ichidagi og'riqni kamaytiradi.

Bizga ma'lumki buyrak tosh kasaligini kelib chiqishiga sabablardan biri turli xil dori- darmonlarni tartibsiz iste'mol qilishimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham iloji boricha biz xalq tabobatidan faydalanishimiz kerak.

Shuningdek quyidagi usullar ham buyrak tosh kasaligini davolashda va uni oldini olishda tavsiya etiladi.

1. Shaftoli danagi xalq tabobatida buyrak va qovuqdagi toshlarni yemirish va eritish xususiyatiga ega. Mag'izida esa peshob haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

2. Abu Ali ibni Sino qovunning salqin joyda quritilgan pochog'ining damlamasi buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalash xususiyati borligini aytgan.

3. Petrushka damlamasi- buyrak, qovuq, jigarda tosh bo'lsa ichilsa foydali bo'ladi. Bundan tashqari siyishni osonlashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

4. Xalq tabobatida buyrak og'rig'ini qoldirish uchun piyoz sharbati tavsiya etiladi.

XULOSA

Buyrak tosh kasalligi-buyrak jomida, kosachalarida, siydik naylarida tuz to'planishi bilan bog'liq kasallik bo'lib. Bu kasallik moddalar almashinuvining

buzilishi, mineral tuzlarni ko'payib ketishi natijasida kelib chiqadi. Asosiy belgisi bel sohasida kuchli og'riq bo'ladi. Kasalikni davolashda xalq tabobatida shaftoli danagi Petrushka damlamasidan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov. Odam va uning salomatligi. Toshkent. 2010.
2. Sh.M. Qirg'izov, A.S. G'ofurov Buyrak-tosh kasalligida magnitlangan suvdan foydalanish. International scientific-online conference on Innovation in the modern education system Part 2. 2021. 175-177 b.
3. I.R. Asqarov Sirli tabobat. Toshkent. 2021. 93-99 b.
4. Al-Tawheed AR, Al-Awadi KA, Kehinde EO, Abdul-Halim H, Hanafi AM, Ali Y. Treatment of calculi in kidneys with congenital anomalies: an assessment of the efficacy of lithotripsy. Urol Res. 2006;34(5):291-298.
5. Ferraro PM, Taylor EN, Eisner BH, et al. History of kidney stones and the risk of coronary heart disease. JAMA. 2013;310(4):408-415.
6. Nurbek, A. (2021, December). The Combination of Social Relationships and Psychological Health. In Conference Zone (pp. 268-270).
7. Nurbek, A. (2021). Management Psychology Leader and Its Characteristics. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(1), 13-16.
7. Nurbek, A. (2021). Psixologik Salomatlik Va Uning Mohiyati. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 666-669.
8. Alijonov, N. (2022). IMPLEMENTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF LEADERS IN THE FIELD OF EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 631-634.
9. Alijonov, N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF LEADERSHIP ACTIVITY. Research Focus, 1(4), 241-246.
10. Nurbek, A. (2023). SOCIAL PSYCHOLOGY OF ALTRUISM AND ALTRUISTIC BEHAVIOR. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 134-137.
11. ALIJONOV, N., & XULQ, A. I. P. V. A. (2023). ATVOR//JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES.
12. Alijonov, N. (2022). RAHBAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING O'RNI. Мировая наука, (3 (60)), 3-10.
13. ALIJONOV, N. (2023). ALTRUIZMNING IJTIMOYIY PSIXOLOGIYASI VA ALTRUISTIK XULQ-ATVOR. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 71-74.
14. "Nurbek, A., & Nematovna, S. N. (2022). MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA SENSOR TARAQQIYOT MUAMMOSI. Uzbek Scholar Journal, 4, 147-152."
15. Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). THE WORLD'S ROLE OF UZBEK

NATIONAL DRESSES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 117-120.

16. Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). BOSHQARUVCHI RAHBAR SHAXSGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR. PEDAGOG, 6(6), 451-458.

17. Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). IJTIMOYIY MUNOSABATLAR VA PSIXOLOGIK SALOMATLIK UYG 'UNLIGI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(6), 266-272.

18. Alijonov, N. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING RAHBAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIDAGI O 'RNINI EMPIRIK TADQIQ QILISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6), 102-108.

Nurbek Ulug'bek o'g, A. (2023). PSIXOLOGIK SALOMATLIK TUSHUNCHASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(20), 162-166